

Xumoyun ABDURASULOV, Ibodulloxon KIMSANNAZAROV
TDIU, “Buxgalteriya hisobi” fakulteti 3-kurs talabalari

12-SONLI BHXSI(IAS): FOYDA SOLIG‘I STANDATINI QO‘LLASHNING ZARURLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasida 12-sonli BHXSI “Foyda solig‘i” xarajatlarini hisblash va u bilan bog‘liq xisob-kitoblarni moliyaviy hisobotlarda aks ettirishni shu bilan birga moliyaviy axborotdan foydalanuvchilarga foyda solig‘iga tegishli muhim axborotlarni yetkazish va amaliyotda yanada kengroq qo‘llashning zarurligi bilan bog‘liq.

Kalit so‘zlar: Perspektiv, xarakat, xarakat natijasi, vaqtinchalik farq, soliq majburiyati, soliq aktivi.

THE NECESSITY OF APPLYING IAS 12: INCOME TAXES STANDARD

Annotation. This article is concerned with the need to feel the costs of the BHXSI “profit tax” No. 12 in the Republic of Uzbekistan and reflect the associated misdeeds in financial statements, as well as to convey important information related to the profit tax to users of financial information and to apply it more widely in practice.


Keywords: perspective, disposition, disposition result, temporary difference, tax liability, tax asset.

Kirish

Ma’lumki har qanday biznes bu-foyda olishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyatidir. Xarakat bu -realizatsiya, xarakat natijasi- foyda yoki zarar bo‘lib, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar soliq solish maqsadlarida soliq kodeksida belgilangan tartib tamoyillarga tayangan holda soliq to‘lovlarini amalga oshiradilar. Ammo foyda solig‘ini hisoblashda soliq qonunchiligi va buxgalteriya hisobi standartlari o‘rtasida nomuttanosibliklar yuzaga keladi. Ushbu nomuttanosibliklarni to‘g‘ri hisobga olish hamda hisobini yuritish birmuncha murakkab bo‘lgan hisob kitoblar va buxgalteriya o‘tkazmalarini talab qiladi. Bu hisob-kitoblarni amalga oshirish va hisobga olish 12-sonli BHXSI(IAS) ga muvofiq amalga oshiriladi.


Tahlil va natijalar

Foyda solig'i 37-sonli BHXS(IAS)ga muvofiq baholangan majburiyat ta'rifiga mos keladi. Baholangan majburiyat-bu noaniq muddat yoki summaga ega bo'lgan majburiyatdir. Foyda so'lig'ni to'lash muddati aniq ya'ni soliq kodeksida belgilangan muddatda to'lanadi, ammo to'lanadigan soliq summasi noaniq shu sababli ham foyda solig'i baholangan majburiyatlar sarasiga kiritiladi. Foyda yoki zararlar va boshqa umumlashgan daromadlar to'g'risidagi hisobotda aks etadigan ko'rsatkich, soliq to'lagunga qadar foyda bu buxgalteriya foydasi hisoblanadi. Foyda solig'ining soliq solish bazasi buxgalteriya foydasiga teng emas.



1-rasm “Foyda solig'i xarajati

Foyda solig'i bo'yicha to'lovlarning barchasi soliq kodeksiga sasosan amalga oshirilsada soliq solinadigan aktiv yoki majburiyatning hisobi buxgalteriya hisobi to'g'risadgi qonunchilikka muvofiq qo'shimcha hisob kitoblar va buxgalteriya o'tkazmalari natijasida shakllantiriladi hamda axborotdan foydalanuvchilarga foydali moliyaviy axborotlar taqdim etiladi. Buxgalteriya hisobi hamda soliq hisobi o'rtasidagi nomuttanosibliklar hisob-kitob vaqtlarining farqidan yuzaga keladi, ya'ni vaqtinchalik farqlar yuzaga keladi.



2-rasm “ Foda solig'ida soliq farqlari”

Agar soliq farqlari doimiy bo'lsa buni soliq kodeksi hech qachon hisobga olmaydi va soliq kodeksiga muvofiq foyda solig'ini hisoblashda daromad yoxud chegirilmaydigan xarajat sifatida etirof etiladi. Jumladan hisoblangan jarima va peniyalar, tekinga berilgan mol-mulkning qiymati va hokzalar. Agar soliq farqlari vaqtinchalik bo'lsa uni qo'shimcha hisob-kitob va buxgalteriya o'tkazmalari orqali hisobi yuritiladi kelgusida bu farqlarni soliq qonunchiligi hisobga oladi. Baholangan majburiyat ya'ni foyda solig'I majburiyati qaysi davrda o'zgarsa o'sha davr moliyaviy hisobotlarida aks ettiriladi ya'ni perspektiv . Shu oraqali axborotdan foydalanuvchilarga foydali moliyaviy axborotlar taqdim etiladi.

Tushuntirishga doir hisob-kitoblar: ABC MCHJ shartli ravishda har yili 100 000 sh.b foyda ko'radi . MCHJning buxgalteriya maqsadlaridagi hisob siyosatiga muvofiq ishlab chiqarish asbob-uskunalariga 30%li kamayib boruvchi qoldiqli usulda eskirish hisoblab ishlab chiqarilgan mahsulotlari tannarxiga xarajat sifatida qo'shadi. O'zbekiston Respublikasining amaldagi soliq kodeksiga muvofiq ishlab chiqarish asbob uskunalariga 20% to'g'ri chiziqli usulda eskirish hisoblash nazarda tutilgan. Uskuna 01.01.2022da 50 000 sh.bga xarid qilingan foydali, xizmat muddati 5 yil tugatish qiymati 0 sh.b.


SA- kechiktirilgan soliq aktivi, SM- kechiktirilgan soliq majburiyati

Element(aktiv yoki majburiyat)	Elementning buxgalteriya qiymati(000)	Elementning soliq qiymati(000)	Vaqtinchalik farq (000)	Soliq stavlkasi 15%	Kechiktirilgan soliq aktivi yoki soliq majburiyati(000)
1.foyda	100-50*30%	100-50*20%	5	0,15	0.75 (SA)
2.foyda	100-35*30%	100-50*20%	0,5	0,15	0.075 (SA)
3.foyda	100-24,5*30%	100-50*20%	2,65	0,15	0.3975 (SM)
4.foyda	100-17,5*30%	100-50*20%	4,75	0,15	0.7125 (SM)
5.foyda	100-11,7	100-50*20%	1.7	0,15	0.255 (SA)
Jami:	450.2	450	0.2	0.15	0.03 (SM)

1-jadval. Tushuntirishga doir hisob kitoblar

Agar element aktiv bo'lsa va buxgalteriya qiymati soliq qiymatidan katta bo'lsa, vaqtinchalik farq soliq solinadigan vaqtinchalik farq sifatida tan olinadi.

Agar element aktiv bo'lsa va buxgalteriya qiymati soliq qiymatidan kichik bo'lsa, vaqtinchalik farq soliq solishda chegiriladigan vaqtinchalik farq sifatidan tan olinadi.



3-rasm. Vaqtinchalik farqlarning tavsiflanishi

Agar element majburiyat bo'lsa va buxgalteriya qiymati soliq qiymatidan yuqori bo'lsa, vaqtinchalik farq soliq solishda chegiriladigan vaqtinchalik farq sifatida tan olinadi.

Agar element majburiyat bo'lsa va buxgalteriya qiymati soliq qiymatidan kichik bo'lsa, vaqtinchalik farq soliq solinadigan vaqtinchalik farq sifatida tan olinadi.

DT	Foyda solig'i xarajati	KT
1)joriy yil uchun	1)soliqni tejash qoplamasi	
2)o'tkan yilni tuzatish	2)o'tgan yil orqali	
3)kechiktirilgan soliq xarajati	3)kechiktirilgan soliq qoplamasi	

Agar asosiy vositani qayta baholashda kechiktirilgan soliq aktivi yoki majburiyati yuzaga kelsa "Foyda yoki zararlar va boshqa umumlashgan daromadlar" tog'risidagi hisobotning "Boshqa umulashagn daromadlar" qismiga olib boriladi

(DT-debet, KT -kredit)

4-rasm. Foyda solig'i schyoti

International Journal of Finance and Digitalization
Email: ijfduz@gmail.com

Mazkur standart “Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti” bo‘lgani bois mamalakatimmizda qo‘llashdagi asosiy muammo kadrlar masalasi sanalib hanuz amaliyotga joriy qilishda qiyinchiliklar mavjud. Standartni qo‘llash nafat soliqlarni optimallashtirish balki to‘g‘ri hisob yuritishni ham nazarda tutadi. BHXS va MHXS larni qo‘llashdagi muammolarni bartaraf qilish uchun PQ-4611 “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorni hamjamiyatga yanad akengroq targ‘ib qilish taklif etiladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi;
2. Foyda soliqlari (12-son bhxs) buxgalteriya hisobining xalqaro standartini respublikamiz amaliyotiga transformasiya qilishdagi vazifalar
3. IAS 12-income-tax
4. Foyda soliqlari (12-son bhxs) buxgalteriya hisobining xalqaro standartini respublikamiz amaliyotiga transformasiya qilishdagi vazifalar
5. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED>
6. https://buxgalter.uz/ul/publish/doc/text177672_bepul_vebinar_12-son_bhhs_foyda_soliqlari?ysclid=mac1ntxobo395699943
7. [https://nrm.uz/products?folder=708952_bhhs_\(ifrs\)&products=1_vse_zakon odatelstvo_uzbekistana](https://nrm.uz/products?folder=708952_bhhs_(ifrs)&products=1_vse_zakon_odatelstvo_uzbekistana)
8. FOYDA SOLIQLARI (BHXS 12) AMALIYOTDA QO‘LLASHNING NAZARIY ASOSLARI.